

## GʻAFUR GʻULOMNING ASARI TILIDA NARSA VA PREDMETLARGA OʻXSHATISH VOSITALARI

*Hamidova Nodira*

*Termiz davlat pedagogika instituti oʻqituvchisi*

### ANNOTATSIYA

Maqolada Gʻafur Gʻulomning asari tilida narsa va predmetlarga oʻxshatish vositalari tahlil qilinadi va qahramonlar ruhiyatni aks ettiruvchi jihatlari haqida soʻz yuritiladi. Muallifning fikricha, Gʻafur Gʻulom asarlarida tasvirlangan narsa-predmetlarga oʻxshatishlar voqelikning original ifodasi, davr holatining oʻta sinchkovlik bilan kuzatilganligini, tabiiyligini, ularning goʻzal tasviridir.

**Kalit soʻz va iboralar:** Gʻafur Gʻulom, asari tili, predmetlarga oʻxshatish, vosita, qahramon ruhiyati, original ifoda, goʻzal tasvir.

### АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются сравнения предметов и предметов в языке произведений Гафура Гулама и рассказывается об аспектах персонажей, отражающих психику. По мнению автора, сравнения вещей и предметов, изображенных в произведениях Гафура Гулама, являются своеобразным выражением действительности, очень тщательно выдержанной, естественностью ситуации времени, прекрасным ее изображением.

**Ключевые слова и фразы:** Гафур Гулам, язык его творчества, аналогия с предметами, средствами, мировоззрение героя, оригинальное выражение, красивый образ.

### ANNOTATION

This article analyzes the similes of objects and objects in the language of Gafur Ghulam's works and talks about the aspects of characters reflecting the psyche. According to the author, similes of things and objects described in Gafur Ghulam's works are an original expression of reality, a very carefully observed, naturalness of the situation of the time, a beautiful image of them.

**Key words and phrases:** Gafur Ghulam, the language of his work, analogy with objects, means, hero's mentality, original expression, beautiful image.

Tilimizning butun sir-sinoati, salohiyati jozibadorligi, nozik tushuncha va histuygʻularni ifodalashi soʻzlar vositasida yuzaga chiqadi. Til birliklariga yuklatilgan maʼno tafovutlari oʻxshatish, qiyoslash, umumlashtirishlar vositasida farqlanadi. Bir soʻz bilan aytganda, bu sirli olam oʻxshatish, qiyoslash vositasida konkret tushunchalarga aylanadi.

Gʻafur Gʻulom asarlari quvnoq, hayotbaxshligi, azob–uqubatlardagi “yoqimlilik” tasviri jihatidan oʻzbek xalqi hayotidagi qiyinchilik, achchiq sinovli kunlar, mashaqqatlar bolalar nigohi va dunyoqarashi orqali, sarguzashtnamo hangomalar asosida, hazil–mutoyibaga, begʻaraz kulgiga yoʻgʻrilgan uslubda badiiy gavdalantirilgan. Yozuvchi oʻzi yashagan davrning qiyofasini mahallalardagi hayot tarzini, siyosiy jarayonlarni, ish va ishsizlik, qashshoqlar va ularning huquqlari poymol boʻlishi hamda boylar hayotini tasvirlaydi[4].

Gʻafur Gʻulom asarlari tili ustida juda koʻp mehnat qilgan. Adibning qaysi asarini olmag uning tilida tabiiylik ufurib turadi. Gʻafur Gʻulom tilida kishini maftun qiladigan birinchi xislat–tabiiylikdir. Gʻafur Gʻulom asarlaridagi oʻxshatishlar oʻquvchi hayratini oshiradi. Shuni ham aytish lozimki, bu oʻxshatishlar yozuvchining kuzatuvchanligi, hayot haqiqatini ipidan-ignasigacha, miridan sirigacha, butun ikir-chikirigacha koʻrsata olishiga bir dalildir. Chunonchi,

“It quvgan tulkiday olazarak Omon menga ergashdi” [1, 52-b];

“Oʻchoqdan chiqqan zangori tutun osmonga oʻrlab, tevarakatofga koʻrpadek yoyilar edi” [1, 23-b];

“Hazrat boʻlsa, oʻzini umr boʻyi oʻlikdan boshqa narsani yuvmagan kishiday qilib koʻrsatishga harakat qilar edi” [2, 231-b];

“Sirlangan xumchaga tushgan sichqonday toʻrt tomonga alanglab oʻzimga bir najot yoʻli qidirar edim” [2, 89-b];

;

“Zinadan chiqqan itdek toʻrt oyoqlab narvonga tirmashib tomga chiqdim” [1, 256-b] va hokazo.

Mana yozuvchining tildan foydalanish mahorati. Koʻrinadiki, bu oʻxshatishlar, birinchidan, hech bir anʻananing davomi boʻlmasdan, voqelikdan kelib chiqqandir. Ikkinchidan, ona tilimizda har kuni hamma tomonida qayta-qayta ishlatiladigan soʻzlar vositasida hosil qilingan oʻxshatishlardir. Qolgan holatlarda oʻxshatish bir martadan bir predmetga nisbatan ishlatilgan. Bu psixologik jarayon yuqoridagi misolda berilib, ekspressivlikni hosil qilmoqda.

Tasavvur qiling chilim (nasha chilim) faqat nashavandlarga chiroyli koʻrinishi mumkin. Chilimdagi uzun nay yigitning bir qoʻliga oʻxshasa, uning qomati qay darajada ekanligini tushunish uncha qiyin emas. Hikoya nihoyasida: U oʻzicha gapirib borar edi:

Gʻafur Gʻulom “yaratgan jumlar tilimizning boyligini oʻzida aks ettirib, kamalakday tovlantiradi” va zaruriy oʻrinda maqtovini mubolagʻa darajasiga yetkazsa, ayrim oʻziga yoqmagan, chirkin holatlar tasvirida qoʻllagan leksemalar kuchli psixologik holatni tasvirlashga xizmat qiladi[4].

Yozuvchi asarlarida tasvirlangan narsa-predmetlarga o'xshatishlarga nazar tashlasak, voqelikning original ifodasi, davr holatining o'ta sinchkovlik bilan kuzatilganligini, tabiiyligini, ularning go'zal tasvirining guvohi bo'lamiz.

G'afur G'ulom asarida inson, uning kechinmalari, taqdiri silsilasi, hayotiy tajribasi, o'y-xayollari, turli xil vaziyatlarda voqealar girdobidan chiqishi, har bir holatda o'zini shaxs sifatida namoyon qilishi... kitobxonni-har bir insonni, keng idrok qilishga, har bir davrning ijtimoiy – siyosiy, ma'naviy hayotidan kelib chiqib, uni tahliliy asosda o'rganib, keng mulohaza va mushohada qilishga undaydi.

Voqeaband holatlarda milliy an'analarda saqlangan o'yinlar, urf-odatlar, qadimgi qo'shiqlarimiz, joylarning o'ziga xos tasviri to'liq ifodalangan. Masalan:

“Ora-chorada tor ko'chalar yo'limni to'sib qolsa ham, tulki quvlagan tovuqday sakrab o'tib ketar edim” [2, 237-b];

“Xotin qozonning qopqog'ini ochdi – baliqday bo'lib oppoq laganda moshkichiri chiqdi, o'rta qo'ydilar” [3, 245-b];

“Qo'ylar xuddi sutga tushgan sichqonday boshlarini ko'tarib suzar edilar” [2, 354-b];

“Har ikkovimizning yuragimiz dard tekkan terak yaprog'iday qaltirab turibdi” [3, 241-b].

Yozuvchi asar badiiyligini oshirishda persoiajlar tilini individuallashtirishda, badiiy joziba berishda qahramonlarni jonli so'zlashuv tilida gapirtirishga harakat qilgan. Asarda voqealar tasviri shu qadar oddiy, xalqchil va sarguzashtga mos ravishda ifodalanganligi, so'zlarni o'z o'rnida mohirona tanlanganligi bois maroq bilan o'qiladi,

Yozuvchi so'zlarni kerakli o'rinlarda o'tmish davr tushuncha va tasavvurlarni zamonaviy nutqda zaruriyat tufayli o'rinli qullay olgan.

G'afur G'ulomning so'z ustasi ekanligi uning yangi, original ifodalarni yaratishidadnr. Uning asarlari tilidagi “quvnoq xazillar insonning qiyin psixologii holatini yumshatadi va uni ruxiy zarbadan olib chiqadi. Badiiy asarda muallif xazil so'z va iboralarga ko'proq murojaat etadi. Yozuvchining asosiy maqsadi qahramon hatti-harakatini, uning bolalarcha sodda, ravon, hamma uchun tushunarli bo'lgan nutqni, hozirjavoblik xislatlarini real ko'rsatish bo'lsa, undan tashqari voqea hodisa tafsilotlarini o'quvchi ko'z oldida real tasvirlashdan nboratdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Гулом Ғ. Танланган асарлар. –Т.: Ғафур Гулом номидаги нашриёт–матбаа ижодий уйи, 2012.
2. Гулом Ғ. Мукаммал асарлар тўплами. 10–жилд. Таржималар.
3. Гулом Ғ. Шум бола қиссаси. –Т.:Ғафур Гулом номидаги нашриёт–матбаа ижодий уйи, 2015.
4. Мамажонов С. Ғафур Гулом прозаси. –Т.: Фан, 1966 –Б. 50
5. Гулом Ғ. Мукаммал асарлар тўплами. 6 том. –Т.: Фан, 1986

6. Mardonova Lobar Umaraliyevna, & Xonimova Maryam. (2024). BUYUK ZAMONDOSHLAR, MANGU YASHAGAY. PEDAGOGS, 57(1), 132–138.
7. Majidova Shahnoza. (2023). GIDRONIMLAR LISONIY QIMMATGA EGA BO‘LGAN TIL BIRLIGI SIFATIDA. Proceedings of International Educators Conference, 2(1), 648–653.
8. Sahkiba Saidmuradova, & To‘lqinova Madina. (2024). ALISHER NAVOIY SHE‘RIYATI POETIKASI. PEDAGOGS, 57(1), 147–152.
9. Qurbonova Gavhar Xurramovna, & Avazova Dilfuza. (2024). ABDULLA ORIPOV SHE‘RIYATIDA O‘XSHATISHLAR. PEDAGOGS, 57(1), 158–160
10. Сайфуллаев Нажибулло. (2023). ТЕРМИНЫ – НЕОТЪЕМЛЕМОЕ БОГАТСТВО НАШЕГО ЯЗЫКА. PEDAGOGS, 46(1), 67–69.
11. Avriddinov Jobir Musulmon o‘g‘li, & Shonazarova Madinabonu Xamrobek qizi. (2024). RO‘DAKIYNING SHE‘RIYATI VA TILI HAQIDA BA‘ZI MULOHAZALAR. PEDAGOGS, 57(1), 143–146.
12. Nigora Jo‘ranazarova Qurbonboy qizi, & Qahhorova Dinora Shuhrat qizi. (2024). XUDOYBERDI TO‘XTABOYEV ASARLARIDA O‘XSHATISH VA METAFORANING KONTEKSLARDAGI O‘RNI. PEDAGOGS, 57(1), 161–167.